


ALSHIR
NAVOIY
XALQARO JAMOIAT FONDI



**“NIZOMIY VA NAVOIYNING
ADABIY MEROSI:
BADIY TIMSOL VA INSON
FALSAFASI UYG‘UNLIGI”
MAVZUSIDAGI
XALQARO
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

Qo‘qon - 2026



UDK: 159.922+159.938.362

KBK: 87.52

©Qo‘qon universiteti, 2026; ©«SCIENCE PRINT» MCHJ», 2026.
“Nizomiy va Navoiyning adabiy merosi: badiiy timsol va inson falsafasi uyg‘unligi”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: «SCIENCE
PRINT» MCHJ», – Toshkent, 2026, 497 b.

Qo‘qon universiteti direktori

G.E.Zaxidov tahriri ostida

Tahrir kengashi:

Almaz Ülvi Binnatova - filologiya fanlari doktori, professor

Boqijon To‘xliyev - Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jabbor Eshonqulov - Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Minhojiddin Mirzo – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi
o‘rinbosari

Nurboy Jabborov – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Maqsud Asadov – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Olimjon Davlatov- Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Zeboxon Qobilova – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Saidbek Boltabayev – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mazkur to‘plam 2026-yil 16-yanvardagi Qo‘qon universiteti Kengashi tomonidam
ma‘ullangan va nashrga tavsiya etilgan. To‘plamga kiritilgan maqolalarning
mazmuni, ilmiyligi hamda keltirilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar
mas‘uldir.

Konferensiya materiallarini nashrga tayyorlaganlar:
Sh.Jumanova, M.Imomaliyeva, N.Tursunova, H.Raimova, N.Javharova

doirasida tahlil qilinadi. Natijada qahramonlarimiz Farhod, Bahrom, “qushlar” karvoni “ijtimoiy tip” sifatida emas, balki psixologik jarayonlar xaritasi sifatida ochildi, ya’ni ular yo’lda charchaydi, ikkilanadi, o’zini ayblaydi, qayta kuch topadi - bu esa real hayotdagi depressiv holatdan chiqish, qaror qabul qilish va motivatsiyani tiklash jarayonlari bilan qiyoslanadi. Qolaversa amaliy yo’nalish shuni ko’rsatadiki, mumtoz dostonlardan ta’lim va tarbiya jarayonida biblioterapiya elementi sifatida foydalanish mumkin. Masalan talaba qahramon kechinmalarini o’qib, undagi holat bilan identifikatsiya qiladi, natijada emotsional bo’shashish, ya’ni katarsis yuz beradi va oxir-oqibat o’z muammosiga nisbatan yangi tushuncha (insayt) paydo bo’ladi. Ayniqsa, “Lison ut-tayr”dagi Hudhudning rag’batlantiruvchi nutqlari kognitiv yondashuvdagi “fikrni qayta shakllantirish” mexanizmlariga yaqin bo’lib, yoshlar ruhiy barqarorligida “psixologik immunitet”ni kuchaytiruvchi omil bo’la oladi. Shuningdek, “Hayrat” fenomeni shaxs idrokini kengaytirib, o’ziga qaratilgan mayda tashvishlardan chiqib, hayotga kengroq ma’no nuqtayi nazaridan qarashga yordam berishini alohida ta’kidlash mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ba’zi amaliy tavsiyalar berishni o’rinli deb hisobladim. Jumladan, oliy ta’limda “Adabiy terapiya” yoki “Biblioterapiya” asosida seminar-treninglar ishlab chiqib, doston parchalari bilan refleksiya savollarini (o’z-o’zini tahlil qilish, his-tuyg’u xaritasi, qadriyatlar rejasini) birlashtirishni aytishim mumkin. “Lison ut-tayr” asaridagi “yetti vodiy” modelini talaba-yoshlar uchun “shaxsiy o’sish yo’li” sifatida vizual xarita, ya’ni grafik organayzerga aylantirish mumkin. Bundan tashqari “Nafs auditi” savollarini (nega g’azablandim, nima meni xafa qildi, nimadan qo’rqyapman, maqsadim nima) muntazam kundalik darslarda yoki dam olish daqiqalarida metodika sifatida qo’llab real vaziyatlar bilan bog’lash ham professor-o’qituvchilar va talabalar uchun manfaatli bo’ladi deb hisoblayman.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. - Toshkent: Fan, 2006.
2. Nizomiy Ganjaviy. Haft paykar. - Toshkent: Adabiyot, 2018.
3. Viktor Frankl Man's Search for Meaning. - New York, 1985.
4. Zigmund Freyd Psixooanaliz haqida. - Toshkent, 2013.
5. Abraam Maslou Motivation and Personality. - New York, 1954.
6. Eshonqulova, G. (2023). ILK BOLALIK DAVRIDAGI HISSIY KECHINMALARNING TA’LIMGA TA’SIRI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 803-805. [6, 805].

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA JISMONIY TARBIYA G‘OYALARINING PEDAGOGIK TALQINI

Ergashev Shahboz Dilmurodjon o’g’li,
Qo’qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’zbek xalq ertaklaridagi jismoniy tarbiya g’oyalari etnopedagogik uzatish kanali sifatida pedagogik talqin etiladi. «Kulsa



– gul, yig‘lasa – dur», «Luqmoni hakim» va «Oltin beshik» to‘plamlaridan 19 ta fragment kontent-tahlil metodi asosida o‘rganildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ertaklardagi jismoniy tarbiya g‘oyalari to‘rt funksional guruhda – axborot-ma‘rifiy, motivatsion-rag‘batlantiruvchi, metodik-amaliy va ijtimoiy-integrativ – namoyon bo‘ladi. Ertak janri dostondan farqli o‘laroq jismoniy barkamollikni «erishish mumkin bo‘lgan model» darajasida taqdim etadi. Uch bosqichli tarixiy-genetik tahlil ertaklarning barcha tarixiy bosqichlar merosiduligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: xalq ertaklari, jismoniy tarbiya, etnopedagogika, pedagogik talqin, tarixiy-genetik tahlil, o‘zbek folklori, harakat kompetentligi.

Abstract. This article examines the pedagogical interpretation of physical education ideas in Uzbek folk fairy tales as an ethnopedagogical transmission channel. Based on content analysis of 19 fragments from three fairy tale collections — «Kulsa — gul, yig‘lasa — dur», «Luqmoni hakim» and «Oltin beshik» — the study identifies four functional groups of physical education ideas: informational-educational, motivational-stimulating, methodological-practical, and social-integrative. The analysis reveals that fairy tales, unlike heroic epics, present physical education at an 'achievable model' level, making physical competence accessible to young audiences through direct imitation. A three-layer historical-genetic analysis (archaic, classical, renewal periods) demonstrates that fairy tales preserve physical education ideas from all three historical stages. The article also highlights the unique contribution of Luqman the Wise collections to health-physical wisdom pedagogy and the gender-progressive representation of female physical competence in fairy tales. The findings contribute to the theoretical framework of Uzbek national pedagogical thinking and ethnopedagogics.

Keywords: folk fairy tales, physical education, ethnopedagogics, pedagogical interpretation, historical-genetic analysis, Uzbek folklore, motor competence, intangible heritage.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ertak janri – jismoniy tarbiya g‘oyalarini avloddan avlodga uzatishning qahramonlik eposidan keyingi eng muhim pedagogik kanali hisoblanadi. Biroq pedagogika tarixi fanida ertaklardagi jismoniy tarbiyaviy mazmun ilgacha tizimli o‘rganilmagan: tadqiqotchilar asosan qahramonlik eposi va maqollar janriga e‘tibor qaratgan, ertak janrining bu sohadagi imkoniyatlari esa ikkinchi darajali manba sifatida qaralgan [1, 128].

UNESCO 2020-yildan boshlab «Nomoddiy madaniy meros va ta‘lim» dasturi doirasida an‘anaviy o‘yin va harakatli folklori rasmiy ta‘limga integratsiya qilishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan. Bu kontekstda an‘anaviy folklor janrlarida, jumladan ertaklarda jismoniy tarbiya g‘oyalarini tizimli tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda «Kulsa – gul, yig‘lasa – dur» (1985), «Luqmoni hakim» (1990) va «Oltin beshik» (1985) to‘plamlaridan kontent-tahlil metodi asosida 19 ta fragment o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi: ertaklardagi jismoniy tarbiya g‘oyalarining pedagogik talqinini to‘rt funksional guruh va tarixiy-genetik qatlamlar kesimida ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: kontent-tahlil (folklor matnlaridan jismoniy tarbiya g'oyalari tizimlashtirilib, to'rt funksional guruhga tasniflanadi); tarixiy-genetik tahlil (fragmentlar uch tarixiy bosqichga ajratiladi); qiyosiy tahlil (ertaklar va dostonlar qiyoslanadi); germenevtik tahlil (folklor matnlaridagi pedagogik ma'nolar o'sha davr kontekstida talqin etiladi).

Tadqiqotning empirik bazasini uchta asosiy to'plam tashkil etadi:

1) «Kulsa – gul, yig'lasa – dur».- Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 302 sahifa;

2) «Luqmoni hakim» – Tuzuvchilar: T.Mirzayev, Z.Husainova. -Toshkent, 1990, 224 sahifa;

3) «Oltin beshik». Mas'ul muharrir: S.Azimov.- Toshkent, 1985, 256 sahifa.

Ertakning eposdan farqli pedagogik mexanizmi

O'zbek folklorshunosligida T.Mirzayev va B.Sarimsoqov epos va ertak janrlarini tarixiy-genetik jihatdan farqlash zarurligini ta'kidlaydilar: «Qahramonlik dostonida mubolag'a (giperbola) etakchi badiiy prinsip bo'lsa, ertakda sehrli-fantastik vositalar orqali real hayot tajribasi uzatiladi» [1, 128]. Ushbu farq jismoniy tarbiya pedagogikasi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar epik dostonlarda Alpomishning «to'qson alp bilan kurash tutishi», Go'ro'g'lining «tog'ni yorishi» kabi mubolag'ali ideallar ifodalansa, ertakda jismoniy barkamollik «amaliy model» darajasida bolalar uchun taqlid qilish mumkin bo'lgan shakllarda namoyon bo'ladi. «Oltin beshik» to'plamidagi «Pahlavon Rustam» ertagi buning yorqin namunasi:

«Qadim zamonda Jaxyu daryosi bo'yida xushmanzara bir mamlakatda Nodirshoh degan hukmdor bor ekan. O'sha yurtda aqlu farosatda yagona Zol degan donishmand o'tgan ekan. Uning uchta o'g'li bor ekan: kattasining ismi Ibrohim, o'rtanchisining ismi Abdulloh va kenjasining ismi Rustam ekan. Zol bolalarini yaxshi tarbiyalabdi. Rustam otda yurish, nayza otish, qilichbozlik kabi hunarlarni mukammal o'rganibdi» [«Oltin beshik», 5-b.]

Ushbu parchada jismoniy tarbiyaning uchta asosiy ko'nikmasi: kamon otish (merganlik), ot minish (chavandozlik), jismoniy mashq (qilichbozlik) ertak syujetiga uyg'un ravishda singib ketgan. “Yaxshi tarbiyalabdi”, “mukammal o'rganibdi” birikmalari bu ko'nikmalarni o'rgatish pedagogik zaruriyat sifatida belgilanganini ko'rsatadi. Zamonaviy sport pedagogikasida bu uchlik «kompleks motor kompetentlik» tushunchasiga to'la muvofiq keladi [4, 14].

Jismoniy sinov – ijtimoiy layoqatni belgilash mexanizmi

«Kulsa – gul, yig'lasa – dur» to'plamidagi «Qora Mushkul Ot» ertagi jismoniy sinovning ijtimoiy-integrativ funksiyasini yorqin namoyon etadi. Ertakda kelin kuyov tanlash mezonini jismoniy sinov sifatida o'zi belgilaydi: «Pahlavon bo'lish» – kuyovning layoqatini isbotlashning asosiy mezoni. Bu J.Hasanboyev ta'kidlaganidek, «o'zbek xalq pedagogikasida jismoniy barkamollik hayotiy zaruriyat sifatida belgilashning eng kuchli xalqona ifodasidir» [2, 214].

Boshqa bir sahna esa «pahlavonning kuchi» davlat va podshoh obroʻsini belgilaydigan omil sifatida taqdim etiladi – jismoniy tarbiyaning faqat individual emas, balki milliy-ijtimoiy ahamiyatini koʻrsatadi [6, 78].

Yosh davrlariga muvofiq jismoniy tarbiya

Uchala toʻplanning qiyosiy tahlili shuni koʻrsatadiki, oʻzbek xalq ertaklarida jismoniy tarbiya yosh davrlarini aniq farqlaydi. «Oltin beshik»dagi «Oypari» ertagi ertalabki muntazam mashqning xalq pedagogikasidagi oʻrnini koʻrsatadi: ertak Husanboy ismli bir yigitning har kuni ertalab turib oʻtin yigʻishga borishi voqeasidan boshlanadi. [«Oltin beshik», 165-b.]

«Har kuni ertalab» iborasi – ertalabki jismoniy faollikning oʻzbek xalq hayotida odatiy va majburiy tartib boʻlganligidan dalolat beradi. Bu zamonaviy sport pedagogikasining asosiy mezon – «muntazamlik prinsipi» bilan toʻla muvofiq. Ibn Sinoning yosh davrlashtirish sxemasi (bolalik 0-7, oʻsmirlik 7-14, yigitlik 14-21) [7, 89] bilan ertaklardagi tasvirlarning uygʻunligi tasodifiy emas.

Ayol jismoniy barkamolligi — gender pedagogik jihat

Oʻzbek xalq ertaklarining epos janridan ustun tomonlaridan biri – ayol qahramonlarning jismoniy barkamolligiga keng oʻrin berilishidir. “Ziyod botir” ertagidagi Qamarxon, “Bektemir botir” ertagidagi Oqbilak, “Muqbil toshotar”dagi Mehrinigor [«Oltin beshik», 1985.] kabi obrazlar fikrimizning yorqin namunasi. Bu qizlarning barchasi ot minish, kamondan oʻq otish, ov qilish, jang qilish mahoratini qoyimmaqom qilib bajaradi. G.Oripova taʼkidlaganidek, «oʻzbek folklorida ayol obrazi – kuch va aql uygʻunligining eng yetuk ifodasidir» [5, 43].

Dostonlar va ertaklardagi jismoniy tarbiya gʻoyalari qiyosiy tahlili

Quyidagi jadval ikki janrning jismoniy tarbiya gʻoyalari boʻyicha asosiy pedagogik farqlarini umumlashtiradi:

Mezon	Qahramonlik eposida	Xalq ertaklarida
Ideal darajasi	Mubolagʻali, yetib boʻlmaydigan (Alpomish 14 botmon yoy koʻtaradi)	Real, taqlid qilish mumkin (Rustam devni yiqitadi)
Pedagogik usul	Namuna orqali ilhomlantirish (passiv tinglovchi)	Koʻrsatma orqali oʻrgatish (faol ishtirokchi)
Maqsadli auditoriya	Katta yoshlilar ham, bolalar ham	Asosan bolalar va oʻsmirlar
JT shakli	Ritual tinglash va hayol	Oʻyin, harakat, amaliy sinov
Ayol tarbiyasi	Epizodik (Barchinoy)	Tizimli (bir necha ertak)
Tarixiy qatlam	Asosan klassik bosqich (IX–XIX asr)	Uchala bosqich vakili
Funksional ustunlik	Motivatsional-ragʻbatlantiruvchi	Metodik-amaliy va axborot-maʼrifiy

1-jadval. Dostonlar va ertaklardagi jismoniy tarbiya gʻoyalari qiyosiy fragmentlarning tarixiy-genetik qatlamlari

Ajratilgan 19 ta fragmentni tarixiy-genetik yondashuv asosida tahlil qilish natijasida ularning uchta tarixiy qatlamga tegishliligi aniqlandi.

1. Arxaik qatlamda (mil. VIII asrgacha): ov, harbiy tayyorgarlik va qabila musobaqalarini aks ettiruvchi motivlar.

2. Klassik qatlamda (IX–XIX asrlar): Luqmoni hakim hikoyalari (Ibn Sino ta'sirida), topishmoq-sinov uyg'unligi.

3. Yangilanish qatlamida (XX–XXI asrlar): muntazam ertalabki mashq an'anasi, maktab va jismoniy tarbiya uyg'unligi.

Bu qatlamlanish ertaklar janrining epos janridan ham ko'proq tarixiy qatlamlarni saqlab qolganligini ko'rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

1) Ertak janri jismoniy tarbiyani «amaliy model» darajasida taqdim etib, mubolag'ali epik idealdan erishish mumkin bo'lgan ko'nikmaga o'tkazish funksiyasini bajaradi.

2) «Luqmoni hakim» to'plami jismoniy jazo bermaslik prinsipi, topishmoq-sinov uyg'unligi va hikmat pedagogikasi orqali Ibn Sino ta'limoti bilan uzviy bog'liq folklor manbasi.


3) Ertak janri barcha yosh davrlarini qamrab oladi va jismoniy tarbiyaning uchala tarixiy bosqich (arxaik, klassik, yangilanish) merosini saqlab qolgan.

4) Ayol jismoniy barkamolligiga eposga nisbatan kengroq o'rin berilganligi gender pedagogikaning progressiv tomonini ko'rsatadi.

5) Ertaklar janri pedagogika tarixida jismoniy tarbiyaning mustaqil va mukammal ko'rsatmali (instruksional) kanali sifatida eposni to'ldiradi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзаев Т.М. Ўзбек фольклоршунослиги. - Т.: Фан, 2005. -428 б.
2. Саримсоқов Б. Ўзбек халқ эртаклари. - Т.: Фан, 1978. 34 - б.
3. Ҳасанбоев Ж.Х. Ўзбек халқ педагогикаси. - Т.: Ўзбекистон, 2004.- 352 б.
4. Волков Г.Н. Этнопедагогика. М.: Просвещение, 1999. - 168 с.
5. Орипова Г. Ўзбек халқ оғзаки ижодида аёл образи. - Т.: Фан, 2009. - 188 б.
6. Матёқубов А.А. Ўзбек халқ педагогикасидаги жисмоний тарбия ғоялари. - Т.: Фан, 2017. - 240 б.
7. Ибн Сино. Тиб қонунлари (Ал-Қонун фит-Тиб). - Т.: Фан, 1981.- 432 б.
8. Эшонқул Ж. Фолклор: образ ва талқин. — Т.: Маънавият, 2010. — 172 б.



Eshonqulova G, Sobirjonova D (O‘zbekiston). Nizomiy va Navoiy ijodida ruhiy reabilitatsiya va komillik psixofalsafasi.....	472-477
Ergashev Sh. O‘zbek xalq ertaklarida jismoniy tarbiya g‘oyalarining pedagogik talqini.....	477-481
Gholamreza Razmi Məxzənül-Əsrar ilə Heyrətül-Əbrar hekayələrində ədalət qayğisi.....	482-488
Shamsiddinova S (O‘zbekiston). Navoiyning pedagogik qarashlari va ularni zamonaviy ta’limga integratsiya qilishning innovatsion yechimlari (oliy ta’lim misolida).....	489-493